O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar	2070
Aipova Iroda Ikramovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	



BANKLARDA AHOLI DEPOZITLARINI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Azizova Gulrux Xolmamat qizi

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti,

ORCID: 0009-0009-0534-6696

feruza6696@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank tizimida aholi omonatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash va mavjud mexanizmlarni zamon talablari asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional hamda huquqiy mexanizmlar holati chuqur tahlil qilingan. Maqolada Aholi depozitlarini kafolatlash jamg'armasi faoliyatining samaradorligi, banklardagi moliyaviy xatarlar va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'rganilgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud tizim aholining omonatlarini muayyan darajada himoya qilsa-da, global moliyaviy muhitdagi tahdidlar va zamonaviy xavflar fonida uni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Shu nuqtayi nazardan maqolada xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladigan mexanizmlarni modernizatsiya qilish, xususan, banklar moliyaviy barqarorligini doimiy monitoring qilish, xatarlarni oldindan aniqlash tizimini joriy etish hamda raqamli texnologiyalar orqali omonatchilarning huquqlarini kafolatlash kabi amaliy taktikalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: bank, bank tizimi, aholi omonatlari, depozit xavfsizligi, moliyaviy barqarorlik, depozitlarni sug'urtalash, kafolat tizimi, tijorat banklari, likvidlik darajasi, moliyaviy nazorat, bank ishonchliligi, omonatlarni himoya qilish, regulyator siyosati, Markaziy bank, bank islohotlari, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract: This article covers the issues of protecting population deposits in the banking system, ensuring their safety, and improving existing mechanisms based on modern requirements. In particular, the state of institutional and legal mechanisms necessary to ensure financial stability and increase public confidence in the banking system in the Republic of Uzbekistan is analyzed in depth. The article studies the effectiveness of the Deposit Guarantee Fund, financial risks in banks, and measures aimed at reducing them. The study revealed that although the existing system protects population deposits to a certain extent, there is a need to further improve it against the backdrop of threats and modern risks in the global financial environment. In this regard, the article puts forward practical proposals for modernizing mechanisms that serve to increase security, in particular, continuous monitoring of the financial stability of banks, introducing a system for early detection of risks, and guaranteeing the rights of depositors through digital technologies.

Key words: bank, banking system, population deposits, deposit safety, financial stability, deposit insurance, guarantee system, commercial banks, liquidity level, financial supervision, bank reliability, deposit protection, regulatory policy, Central Bank, banking reforms, financial security.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы защиты вкладов населения в банковской системе, обеспечения их безопасности и совершенствования существующих механизмов в соответствии с требованиями времени. В частности, в Республике Узбекистан глубоко проанализировано состояние институциональных и правовых механизмов, необходимых для обеспечения финансовой стабильности и повышения доверия населения к банковской системе. В статье исследуется эффективность деятельности Фонда гарантирования вкладов населения, финансовые риски в банках и меры, направленные на их снижение. В ходе исследования выяснилось, что, хотя существующая система в определенной степени защищает сбережения населения, на фоне угроз глобальной финансовой среды и современных рисков существует необходимость ее дальнейшего совершенствования. В связи с этим в статье были выдвинуты практические предложения по модернизации механизмов, служащих для повышения безопасности, в частности, по постоянному мониторингу финансовой устойчивости банков, внедрению системы раннего выявления рисков и гарантированию прав вкладчиков с помощью цифровых технологий.

Ключевые слова: банк, банковская система, сбережения населения, безопасность депозитов, финансовая стабильность, страхование депозитов, гарантийная система, коммерческие банки, уровень ликвидности, финансовый контроль, банковская надежность, защита депозитов, политика регулятора, Центральный банк, банковская реформа, финансовая безопасность.



KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bank tizimida aholi depozitlarining ishonchli saqlanishi hamda ularni to'liq va o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlaydigan samarali mexanizmlarning mavjudligi moliyaviy tizimning barqaror faoliyat yuritishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Aholi tomonidan tijorat banklariga omonat sifatida joylashtirilgan mablag'lar moliyaviy resurslar bazasini kengaytiradi, kreditlash hajmini oshiradi va iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantiradi. Shu bois, banklarda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash masalasi nafaqat moliyaviy institutlarning ichki boshqaruv masalasi, balki davlat miqyosida nazorat va qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan dolzarb iqtisodiy muammolardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida moliyaviy tizim, xususan, bank sektori tubdan isloh qilinmoqda. Banklar faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, aholining moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, depozitlar uchun kafolat va sug'urta tizimini takomillashtirish, fuqarolarning omonatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi"ning tashkil etilishi va ushbu jamg'arma orqali aholi mablag'larini sug'urtalash tizimining shakllantirilgani muhim qadam hisoblanadi. Biroq global moliyaviy tahdidlar, iqtisodiy o'zgaruvchanlik va texnologik rivojlanish sharoitida mavjud mexanizmlarning samaradorligini oshirish, ularni zamonaviy xavflarga bardoshli qilish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mavjud tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, aholining banklarga bo'lgan ishonchi to'g'ridan-to'g'ri ularning depozitlari qay darajada xavfsiz saqlanishi bilan bog'liq. Agar bank tizimi fuqarolarning mablag'larini to'liq himoya qilolmasa, bu holat nafaqat tijorat banklari faoliyatiga, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, omonatlarni himoya qilishning institutsional asoslari, moliyaviy kafolat mexanizmlari va tegishli davlat siyosati doimiy tahlil va takomillashtirishni talab qiladi. Jahon bank amaliyotida depozitlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, jumladan, depozitlarni sug'urtalash fondlari, banklarning kapital yetariligi bo'yicha xalqaro standartlar, risklarni boshqarish tizimlari va axborot texnologiyalariga asoslangan monitoring vositalari alohida o'ringa ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish sohasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular o'z asarlarida bank tizimining xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini yaxshilash, moliyaviy resurslarni himoya qilish va mijozlar ishonchini oshirish masalalarini o'rgangan. Ularning fikrlari banklar faoliyatida muhim yo'nalishlarni belgilab beradi.

M.B. Frolov banklar xavfsizligini ta'minlashda moliyaviy barqarorlikning o'rni haqida to'xtalib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, banklar o'zlarining moliyaviy holatini va xatarlarni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari lozim. Frolovning "Banklar xavfsizligi va xavf-xatarlar nazorati" nomli asarida banklar faoliyatida yuzaga keladigan xatarlarni minimallashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va moliyaviy rejalashtirishni yaxshilash zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish va xatarlarni kamaytirish mexanizmlarini doimiy yangilab borish lozimligi qayd etilgan [5].

Rus olimlari tomonidan banklarda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ular bank tizimi barqarorligini ta'minlash, moliyaviy xatarlarni kamaytirish va aholining omonatlarini himoya qilishga qaratilgan. Jumladan, A.E. Lantsovning tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Lantsov banklar va moliyaviy tizimlar xavfsizligini ta'minlashda davlat regulyatsiyasining o'rni va roli ustida to'xtalgan. Uning fikriga ko'ra, banklar faoliyatini tartibga solish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda davlat tomonidan amalga oshiriladigan regulyatsiya va monitoring tizimlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lantsov asarlarida "banklar uchun xavf-xatarlarni boshqarish tizimi nafaqat banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi" degan fikr ilgari surilgan [6].

Yana bir mashhur rus olimi V.V. Grigoriev aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash borasida chuqur tahlillar olib borgan. Grigorievning fikriga ko'ra, banklar xavfsizlik tizimi faqatgina ichki nazorat va monitoring tizimlaridan iborat bo'lmasligi kerak, balki zamonaviy texnologiyalar – xususan, elektron xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi tizimlarini ham qamrab olishi lozim. Unga ko'ra, "banklar uchun xavfsizlik tizimlarini yaxshilashda yangi texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa ma'lumotlarni himoya qilish va firibgarliklarning oldini olish sohasida katta imkoniyatlar yaratadi" [7].

Shuningdek, X.X. Zaharov banklar faoliyatidagi operatsion xatarlarni boshqarish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Zaharovning fikriga ko'ra, operatsion xatarlarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va depozit xavfsizligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. U, shuningdek, bank xodimlarining firibgarliklarni aniqlash va oldini olishdagi roli, shuningdek, banklarning



audit tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, "banklar ichidagi operatsion xatarlarni boshqarish va audit tizimini mustahkamlash depozit xavfsizligini ta'minlashda asosiy omil bo'lishi mumkin" [8].

O'zbekistonlik olim S.O. Nematov o'zining "Bank faoliyatida xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari" nomli asarida banklarda xavfsizlikni ta'minlash tizimining samarali ishlashi uchun ichki audit va nazorat tizimlarining rolini alohida ta'kidlaydi. U, shuningdek, banklar uchun ichki audit tizimini mustahkamlash va uning faoliyatini samarali boshqarish bank xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini bildiradi. Nematovning fikricha, ichki nazorat tizimining samarali ishlashi banklarning ishonchliligini oshiradi va mijozlar uchun xavfsiz xizmatlarni taqdim etadi. Banklar uchun ichki audit tizimini kuchaytirish firibgarlik va boshqa moliyaviy xatolardan himoya qilishning samarali usullaridan biridir [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda banklarda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganishda tizimli va amaliy yondashuvlar asosida ish olib borildi. Asosan, amaldagi qonunchilik hujjatlari, bank tizimidagi real ko'rsatkichlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va Depozitlarni kafolatlash jamg'armasi ma'lumotlari asos qilib olindi. Shu bilan birga, sohaga oid mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ilmiy qarashlari va amaliy tavsiyalari ham tahlil qilindi. Maqolada tahlil uslublari sifatida solishtirma yondashuv, statistik ma'lumotlarni o'rganish hamda grafik ifodalar orqali dalillar asoslash ishlatildi. Shuningdek, bank tizimida amalda mavjud xavfsizlik choralari samaradorligi real misollar orqali yoritib berildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularga nisbatan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotda omonatchilarning huquqiy himoyasi, risklarni boshqarish tizimi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi institutlarning roli alohida e'tiborga olingan. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi nazariy bilimlar va amaliy manbalarni uyg'unlashtirish orqali mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyoti va bank tizimi o'zgarishlar hamda yangilanishlar jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ayniqsa, aholi depozitlarining soni va hajmi oshib bormoqda. Shu bilan birga, depozitlar xavfsizligini ta'minlash masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Aholi tomonidan tijorat banklariga omonat sifatida qo'yiladigan mablag'larning xavfsizligini ta'minlash zarurati banklar oldida turgan jiddiy vazifalardan biridir. Buning uchun zamonaviy xavfsizlik mexanizmlari va texnologiyalarni joriy etish, banklarning o'z xizmatlarini doimiy yangilab borishi talab etiladi.

Aholi depozitlarining har bir turi o'ziga xos xususiyat va maqsadlarga ega. O'zbekiston bank tizimi bugungi kunda turli ehtiyoj va imkoniyatlarga moslashtirilgan, keng ko'lamli depozit xizmatlarini taklif qilmoqda. 2024-yil yakuniga ko'ra, tijorat banklarida jismoniy shaxslarning jami depozitlari hajmi 170 trillion so'mdan oshgan bo'lib, bu aholining moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchining ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Aholi depozitlari turlarining solishtirma tahlili quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (1-jadval):


1-jadval. Aholi depozitlari turlarining solishtirma tahlili, 2024-yil holatiga [13].

Depozit turi	Asosiy xususiyatlari	Yillik foiz stavkasi (%)	Likvidlilik darajasi	Maqsadli auditoriya
Talab qilib olinadigan	Istalgan vaqtda yechib olish mumkin, kam foiz	1-3%	Juda yuqori	Kundalik xarajatlar uchun
Muddatli depozitlar	Ma'lum muddatga, yuqori foiz, muddat tugamaguncha yechib bo'lmaydi	19-22%	O'rta daraja	Ortiqcha mablag'larni tejovchilar
Valyuta depozitlari	Chet el valyutasida, kurs xavfi kam, foiz nisbatan past	2-4%	O'rta	Valyutada daromad oluvchilar
Maxsus maqsadli depozitlar	Ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ehtiyojlarga yo'naltiriladi	18-20%	Past	Bolalar, oila ehtiyojlari uchun jamg'aruvchilar

Bu jadvaldagi ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, 2024-yil holatiga ko'ra, aholining depozit turlarini tanlashi ularning ehtiyojlariga bog'liq. Kundalik xarajatlar uchun talab qilib olinadigan depozitlar qulay bo'lib, foizi past, ammo juda yuqori likvidlikka ega. Mablag'ni uzoq muddat saqlamoqchi bo'lganlar uchun muddati tugamaguncha yechib bo'lmaydigan, ammo yillik foizi yuqori bo'lgan muddatli depozitlar ma'qul.



Valyutada daromad olishni xohlovchilar valyuta depozitlarini tanlashadi. Ularning foizi pastroq, lekin kurs xavfi kam. Maxsus maqsadli depozitlar esa ta'lim yoki sog'liq kabi ehtiyojlar uchun mo'ljallangan bo'lib, past likvidlikka ega (1-rasm):




1-rasm. Depozit turlarining jami depozitlar tarkibidagi ulushi, 2024-yil, foizda [13].

Yuqoridagi rasimga asosan, 2024-yil holatiga ko'ra, aholining eng ko'p tanlagan depozit turi – muddati belgilangan depozitlar bo'lib, ular jami depozitlarning 60 foizini tashkil qiladi. Bu esa odamlar uzoq muddatli va yuqori daromadli variantlarga ko'proq ishonch bildirayotganini ko'rsatadi. Talab qilib olinadigan depozitlar ulushi 20 foizni tashkil etib, kundalik ehtiyojlar uchun foydalanilayotganini bildiradi. Valyuta depozitlari esa 15 foiz ulushga ega bo'lib, xorijiy valyutaga qiziqish mavjudligini anglatadi. Maxsus maqsadli depozitlar esa eng kam ulushga – ya'ni 5 foizga ega bo'lib, aniq maqsadli jamg'armalar kamroq qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasida aholi depozitlarining hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida jismoniy shaxslarning banklardagi omonatlari 122 trillion so'mdan oshdi. Bu raqam bank sektorining asosiy moliyaviy resurslaridan biri ekanini ko'rsatadi. Demak, bu mablag'larning xavfsizligi – jamiyatda bank tizimiga bo'lgan ishonchni belgilovchi omil hisoblanadi.

Aholi depozitlari xavfsizligi – bu jismoniy shaxslar tomonidan bankka joylashtirilgan mablag'larning butun hajmi bilan o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Aholi depozitlari xavfsizligi yo'nalishlari [13].

Ushbu rasmda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar aks etgan. Depozitlar xavfsizligini ta'minlash, eng avvalo, banklarning moliyaviy barqarorligiga bog'liq bo'lib, bu ularning xatarlarni boshqarish va foydali faoliyat yuritish qobiliyatini bildiradi. Shuningdek, majburiy sug'urtalash tizimi depozitlarning himoyasini kuchaytiradi. Bank nazorati va prudensial talablar moliyaviy intizomni ta'minlab, xavfli holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Oxirgi yo'nalish sifatida moliya bozorlarida shaffoflik va axborot ochiqligi mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston bank tizimida aholi depozitlarini himoya qilish, fuqarolarning banklardagi omonatlariga nisbatan ishonchini saqlash va ularni har qanday noxush vaziyatlardan asrash bo'yicha bir qator institutsional va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Bularning barchasi aholining moliyaviy



muassasalarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga, ularni depozit qo'yishga undashga va shu yo'l bilan jamg'arma madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston bank tizimida aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlovchi asosiy institutsional mexanizmlariga quyidagilar kiradi (2-jadval):

2-jadval. O'zbekiston bank tizimida aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlovchi asosiy institutsional mexanizmlar¹.

Mexanizm turi	Mazmuni
Depozitlarni majburiy sug'urtalash	"Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi" orqali amalga oshiriladi
Moliyaviy monitoring	Markaziy bank va auditorlar tomonidan bank faoliyatining doimiy tahlili
Prudensial normativlar	Kapital yetarliligi, likvidlik, risklarni cheklash koeffitsientlari
Bank faoliyatini litsenziyalash	Faqat ruxsat etilgan, qonuniy banklar omonatlar qabul qilishi mumkin
Axborot tizimi xavfsizligi	Kiberxavfsizlik, onlayn banking tizimlarida shifrlash va autentifikatsiya

Markaziy bank tomonidan banklarning likvidlik darajasini doimiy nazorat qilish, ularning kapitallashtirish ko'rsatkichlari va kredit portfellarining sifatini muntazam baholab borilishi ham aholi omonatlarini bilvosita himoya qiladi. Ya'ni, agar biror bankning moliyaviy holati zaiflashib borayotgan bo'lsa, Markaziy bank unga nisbatan tezkor chora-tadbirlar ko'radi: likvidlikni oshirish bo'yicha topshiriqlar beradi, nazorat ostidagi rejimni joriy etadi yoki zarur bo'lsa, bank faoliyatini boshqa muassasa bilan birlashtirish choralarini ko'radi. Bularning barchasi omonatchilarning manfaatini birinchi o'ringa qo'ygan holda amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank tizimida aholi depozitlarini ishonchli va xavfsiz saqlash, ularni to'liq kafolatlash va muhofaza qilish bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish masalasi hozirgi iqtisodiy sharoitda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Aholi omonatlari moliyaviy resurslarning eng barqaror manbalaridan biri bo'lib, ularning xavfsizligini ta'minlash bank tizimining barqarorligi, moliyaviy muassasalarga bo'lgan ishonch va umumiy iqtisodiy taraqqiyotning kafolati sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholi depozitlarini sug'urtalash tizimi mavjud bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish, zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Birinchiidan, aholi depozitlarini kafolatlash tizimi moliyaviy jihatdan mustahkam va mustaqil bo'lishi kerak. Buning uchun "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi"ning moliyaviy salohiyati oshirilishi, uning moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalangan bo'lishi lozim. Jamg'arma nafaqat favqulodda holatlarda omonatchilarga kompensatsiya to'lovini amalga oshiruvchi vosita, balki banklar faoliyatini doimiy monitoring qilib boruvchi profilaktik institut sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Ikkinchiidan, tijorat banklarida likvidlik va moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishga qaratilgan talablar kuchaytirilishi lozim. Banklarning kapitallashtirish darajasini xalqaro standartlar asosida nazorat qilish, aktivlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish hamda ichki auditni kuchaytirish depozitlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu orqali banklar moliyaviy inqiroz sharoitida ham o'z majburiyatlarini bajara oladigan holatga keltiriladi.

Uchinchiidan, bank-mijoz munosabatlarida shaffoflik va ochiqlik darajasi oshirilishi zarur. Aholiga omonatlar shartlari, sug'urtalash miqdori va qayta to'lash mexanizmlari haqida to'liq va aniq ma'lumot berilishi, bu borada banklarning mas'uliyati qat'iy belgilanilishi kerak. Bu fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish va bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchiidan, axborot texnologiyalari asosida real vaqt rejimida ishlaydigan monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish taklif etiladi. Bunday tizimlar yordamida banklar holatini tezkor baholash, xavflarni oldindan aniqlash va omonatlar xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimlar bu boradagi aniqlik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Beshinchiidan, qonunchilik asoslari takomillashtirilib, aholi omonatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ hujjatlar amaldagi iqtisodiy sharoitga moslashtirilishi lozim. Ayniqsa, bankrotlik holatlarida omonatchilar manfaatlarini ustuvor tartibda ko'rib chiqish, fuqarolarning huquqlarini kafolatlaydigan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Umumiy qilib aytganda, banklarda aholi depozitlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takomillashgan mexanizmlarning joriy etilishi nafaqat moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga, balki mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ham xizmat qiladi. Mazkur maqolada ilgari

1 Muallif tomonidan tayyorlangan



surilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilsa, O'zbekistonda aholi depozitlarining ishonchli va barqaror himoyasini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar qo'yilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrda PQ-3272-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-oktyabrda PF-6079-sonli Farmoni
5. Фролов М.Б. Безопасность банков и контрол над рисками. Москва, 2020. 215-бет.
6. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49-54.
7. Григорьев В.В. Банковская безопасность: теория и практика. М.: Издательство РГУ, 2014. С. 156-160.
8. Захаров Х.Х. Операционные риски в банковской системе России. // Экономика и предпринимательство. 2016. №2. С. 80-83.
9. Нематов С.О. Механизмлар обеспечения безопасности банковской деятельности. Тошкент, 2018. 98-бет.
10. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi sayti
11. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
12. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti
13. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>